



## IJTIMOIIY HAMKORLIK VA BIRDAMLIK KONSEPSIYASI

**Usmanova Sh.Sh**

**Igamberdiyev D**

Andijon davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchilari

**Oxunova Marjona**

**Sobirova Baxtigul**

Fizika yo'nalishi 101-guruh talabalari

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ijtimoiy va birdamlik konsepsiyasining nazariy-metodologik asoslari uning jamiyat taraqqiyotidagi roli hamda barqaror ijtimoiy munosabatlar shakllanishidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy tajriba zamonaviy ijtimoiy –siyosiy sharoitlar hamda ijtimoiy innovatsiyalar asosida ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash strategiyalari ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy hamkorlik, birdamlik konsepsiyasi, ijtimoiy barqarorlik, hamkorlik strategiyasi.

**Kirish.** Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining barqarorligini ta'minlashda ijtimoiy hamkorlik va birdamlik tamoyillari muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda globallashtirish va integratsiyalashtirish jarayonlari sharoitida turli ijtimoiy guruhlar institutlar hamda davlat va fuqorolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro aloqalarning uyg'unligi yanada dolzarb masalaga aylanmoqda. Ijtimoiy hamkorlik bu shunchaki o'zaro aloqadorlik emas, balki umumiy maqsadlarga erishish yo'lida harakatlarning muvofiqlashtirilgan shakli bo'lib, u ijtimoiy birdamlikni shakllantirishning asosiy omillaridan biridir. Ayniqsa ijtimoiy inqirozlar



beqarorlik va ishonch tanqisligi kuzatilayotgan davrlarda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Mazkur maqolada ijtimoiy hamkorlik va birdamlik konsepsiyasining nazariy asoslari ularning tarixiy ildizlari zamonaviy talqinlari hamda amaliy mexanizmlari tahlil qilindi. Ijtimoiy hamkorlik va birdamlik konsepsiyasi sotsiologiya, siyosatshunoslik, ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy menejment fanlari kesishmasida shakllanadigan kompleks nazariy tadqiqot sohasi hisoblanadi. Ushbu konsepsiya ijtimoiy tizimlarning barqarorligi turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi o'zaro ishonchning mustahkamlanishi hamkorlik madaniyatining rivojlanishi hamda fuqarolik jamiyatining faol ishtirokini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ijtimoiy hamkorlik birinchi navbatda o'zaro manfaatdorlikka asoslangan muvofiqlashtirilgan faoliyat bo'lib, uning asosida ijtimoiy subyektlarning o'zaro muloqati, resurslarni birgalikda boshqarish va ijtimoiy mas'uliyat tushunchalari yotadi. Bu jarayon davlat nodavlat tashkilotlar fuqarolik instituti shuningdek jamoatchilik o'rtasidagi strategik aloqalar orqali amalga oshadi. Masalan Hambersmasning kommunikativ harakatlar nazariyasi doirasida hamkorlik bu oqilona asoslangan, konsensusga erishishga qaratilgan ijtimoiy muloqot shakli sifatida talqin qilinadi. Birdamlik esa umumiy qadryatlar tarixiy tajriba va ijtimoiy adolatga asoslangan ijtimoiy birlashuv holati bo'lib, Emile Durkheim tomonidan organik va mehanik birdamlik shaklida tavsiflangan. Zamonaviy jamiyatlarda aynan organic birdamlik ya'ni ixtisoslashgan lekin bir- biriga bog'langan ro'llar va institutlar asosida birdamlik shakli ustuvorlik kasb etmoqda. Bu esa ijtimoiy tizimlarning murakkablashuvi va diversifikatsiyasi bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek ijtimoiy hamkorlik va birdamlikni mustahkamlashda ijtimoi capital ya'ni o'zaro ishonch tarmoq aloqalari va meyorlar majmuasi muhim rol o'ynaydi. R.Putnam va F.Fukuyama kabi tadqiqotchilar ijtimoiy kapitalning ko'pligi jamiyatning demokratik iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanishini ta'minlaydi deb hisoblaydilar. Shu nuqtayi nazardan ijtimoiy birdamlik faqat axloqiy qadryat emas, balki ijtimoiy iqtisodiy barqarorlikning tayanch omili sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda pandemiya iqlim o'zgarishi deosferaviy inqirozlar singari global tahdidlar fonida ijtimoiy hamkorlik va birdamlikning ahamiyati



yanada oshib bormoqda. Xususan ijtimoiy innovatsiyalar raqamli platformalar va inkluziv siyosatlar orqali yangi hamkorlik shakllari vujudga kelmoqda. Bu esa milliy va transmilliy darajalarda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda ijtimoiy hamkorlik va birdamlik zamonaviy jamiyatlarning barqaror taraqqiyotini ta'minlaydigan asosiy ijtimoiy siyosiy omillardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Ushbu konsepsiyalar jamiyat azolari o'rtasidagi o'zaro hurmat, hamjihatlik va mas'uliyatli munosabatlarni shakllantirish orqali ijtimoiy tizimlarning uyg'un faoliyat yuritishini taminlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Saifnazarov I, Muxtarov A, Sultanov T, Usmanov F, Faslafo darslik.
2. Shermuhamedova N.A. Inson falsafasi.Toshkent2021
3. Shermuhamedova N. Falsafa. Toshkent 2021